

MAMLAKATNING STRATEGIK RIVOJLANISH DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA, TA'LIM SOHASI MISOLIDA)

Muallif: Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tингlovchisi

Ilmiy rahbar: Qurbanov Javlonbek Jo'rabelevich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Professor v.b., PhD.

Annotatsiya: Ushbu tezisda mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish masalasi xalqaro tajribalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, ta'lim sohasi misolida strategik rejorashtirish, indikatorlar tizimi va monitoring mexanizmlari o'r ganiladi. AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitiga mos metodologik takliflar ishlab chiqiladi. Natijada, strategik rivojlanish dasturlarini samarali rejorashtirish va boshqarishga qaratilgan yangi yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: strategik rivojlanish, metodologiya, ta'lim sohasi, xalqaro tajriba, indikatorlar tizimi, monitoring, davlat dasturlari, rejorashtirish, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы совершенствования методологии разработки стратегических программ развития страны на основе международного опыта. В частности, анализируются системы стратегического планирования, индикаторов и мониторинга на примере сферы образования. Разработаны предложения, адаптированные для условий Узбекистана, на основе передового опыта США, Финляндии и Южной Кореи. Результаты направлены на создание методологической базы для эффективного управления и устойчивого развития системы образования.

Ключевые слова: стратегическое развитие, методология, сфера образования, международный опыт, мониторинг, система индикаторов.

Abstract: This thesis explores the improvement of methodologies for developing national strategic development programs based on international experiences. It focuses on the education sector, examining strategic planning systems, indicator frameworks, and monitoring mechanisms. The study presents adapted methodological proposals for Uzbekistan, drawing from best practices in countries such as the USA, Finland, and South Korea. The outcomes contribute to the methodological foundation for effective governance and sustainable development in the education system.

Keywords: strategic development, methodology, education sector, international experience, monitoring, indicator system.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda har bir davlat o‘zining strategik rivojlanish konsepsiyasini takomillashtirish zaruratiga duch kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham barcha sohalarda, ayniqsa, ta’lim tizimida strategik rivojlanishga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu tezisda mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasini xalqaro tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati asoslanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik rivojlanish dasturlari — milliy siyosatning yuragi hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim sohasi uchun bunday dasturlar nafaqat inson kapitalini rivojlantiradi, balki iqtisodiy o‘sishni ham ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida AQSh, Janubiy Koreya va Finlandiyaning ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan strategik rejalarashtirish yondashuvlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlarda strategik rejalarashtirishda ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi, monitoring va baholash mexanizmlarining aniq ishlashi, real natijadorlikni ta’minlayotgani kuzatildi. O‘zbekistonda mavjud dasturlar ko‘proq maqsadli yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, ularning baholash tizimi va monitoring mexanizmlari sust ishlayotgani sezilmoqda.

Tezis doirasida O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos va milliy sharoitlarga moslashtirilgan strategik rejalarashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi. Mazkur usullar quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim: aniqlangan indikatorlar asosida monitoring tizimi, natijadorlikka asoslangan baholash usullari, tashqi va ichki omillarni hisobga olgan tahliliy metodologiya.

Xulosa qilib aytganda, strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, mavjud metodologiyani takomillashtirish va milliy tizim uchun ilmiy asoslangan strategik yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu esa O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga, zamonaviy kadrlar tayyorlashga va ta’lim tizimining global raqobatbardoshligini ta’minalashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Bryson, J.M. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations. 5th ed. San Francisco: Jossey-Bass.
2. UNESCO. (2021). Strategic planning in education: Guidelines and tools. Paris: UNESCO Institute for Statistics.
3. Jalolov, J. (2019). Strategik rejalarashtirish va uning O‘zbekistondagi amaliy tajribalari. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 3(2), 45–52.